Bizningcha, ommaviy madaniyatning keng ko'lamda yoyilishida nafaqat industrial ishlab chiqarish va uni tarqatish tizimining zamonaviylashuvi, balki kishilarning, ayniqsa, yoshlarning yangidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni havas bilan iste'mol qilishi, ya'ni, unga egalik qilish hissining yildan yilga kuchayib borishi, undan foydalanishning "moda"ga kundan kunga o'sib borishi hamda kishilarning ana shu "moda"larga o'chligi sabab bo'lgan. Go'yo, kim "moda"ga aylangan ommaviy madaniyat mahsulotlariga egalik qilsa, ya'ni "moda"ga amal qilsa, u madaniyatli deb hisoblangan. Keyinchalik, barchaning ommaviy ravishda ana shu moda asosida yashashi ilg'orlik, ya'ni madaniyatlilik belgisi hisoblangan. Aks holda, u zamondan orqada qolgan – madaniyatsiz deb qabul qilingan. Ana shu aqidadan kelib chiqadigan bo'lsak, ommaviy madaniyat bu ommaviy "moda", ya'ni, yangicha modani niyat qilish, unga erishish va uni ommaviylashtirish demakdir. Moda esa kimningdir foydasini ko'zlagan holda ommaviylashtiriladi. Shu boisdan ham zamonaviy bozor qonuniyatlari zamonaviy ommaviy madaniy mahsulotlarni keng tarqatishdan manfaatdor [4;20–22-b.].

Demak, ommaviy madaniyat tarafdorlari insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi, ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni ommalashtirishga harakat qiladilar. Ularning asosiy maqsadi – milliy madaniyatlarning noyob belgilarini minimallashtirib ularni bir qolipga tiqish va kishilarning, ayniqsa, yoshlarning "narsalarga (buyumlarga) qulligi"ni rag'batlantirishdir. Amerikalik mashhur adib R.Bredberi ta'biri bilan aytganda, ommaviy madaniyat maktabi+dan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi avtomabil, televizor, muzlatgichga ega bo'lishdir.

Bugungi kunda intim munosabatlar, shahvatparastlik, zo'rovonlik, xudbinlik, "Kim kuchli bo'lsa-o'sha haq" degan yovvoyilik qonunlarini badiiylashtirish ommaviy madaniyat tomonidan keng targ'ib etilmoqda.

G'arb davlatlarining ayrimlarida ommaviy madaniyat tarqatayotgan "pornografiya" (sharmsizlik, behayolik) hamda sadizm (shafqatsizlik) targ'iboti yo'liga qo'yilayotgan har qanday g'ovlar sud qarorlari bilan birin-ketin olib tashlanmoqda. Hatto, AQSH maktablarida "Yangi rok" musiqalari o'quv dasturlariga kiritilmoqda.

Aslida, san'at asarlarini yaratish konveyr usulida ishlab chiqarishni emas, balki har bir ijodkordan yuqori iqtidorni talab qiladi. Haqiqiy san'at ijodkorning ruhiy kechinmalari chig'irig'idan o'tib, tabiat, jamiyat va insoniyatga bo'lgan munosabalarining hosilasi sifatida vujudga keladi.

Ommaviy madaniyatning ayrim janrlari haqiqiy san'at asarlaridan ancha uzoqlashib ketdi. Ular ko'proq ommani, asosan yoshlarni junbushga keltiruvchi, noinsoniy ruhiy holatlarni qo'zg'aydigan, ruhiy kechinmalarga ta'sir ko'rsatuvchi ohanglar, xatti-harakatlar va bitiklarni, kliplarni texnik vositalar orqali tarqatishga asoslanadi.

Xulosa va takliflar. An'anaviy madaniyatda esa etnik xususiyatlar – mazmunan va shaklan boshqalardan ajralib turish, muayyan xalqning tarixiga, turmush tarziga, maishiy munosabatlariga aloqadorlik kuchli. Uni tushunish boshqa xalqlar uchun, ayniqsa turmush tarzi, yashash sharoitlari, diniy e'tiqodi farq qiladigan xalqlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari, an'anaviy madaniyatni boshqa xalqlar qabul qilish uchun ushbu madaniyat yaratilgan tilni, ular asosida yotgan folklorni, urf-odatlarni, qadriyatlar tizimini bilish talab etiladi. Shu sababli an'anaviy madaniyatning etnik xususiyatlari kuchliligi tufayli dunyo miqyosida kam tarqaladi. Faqat qo'shni bo'lib yashaydigan xalqlar orasida o'zaro madaniy aloqalar psixologiyasi, maishiy turmushi yaqinligi sababli ko'proq tarqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Де Токвиль А. Демократия в Америке. М., "Прогресс", 1994.

(2). Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. М., "Academia", 2004.

(3). "QDU xabarlari", 2013, 3-son, 63-bet.

(4). Primov B. Axborot oqimining axloqiy qadriyatlarga ta'siri. "Jamiyat va boshqaruv", 2011, 2, 20–22-betlar.

Usmanov Muxriddin Abdimuratovich (O'zMU doktoranti; e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com)

VOQELIKNING QAYTA IDROK ETILISHIDA TAFAKKUR USLUBI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya. *Maqolada virtual obrazlar sharoitida voqelikni idrok etish jarayonining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy raqamli muhitning inson ongiga, bilish jarayonlariga va tafakkur uslubiga ko'rsatadigan ta'siri fenomenologik, gnoseologik hamda sinergetik yondashuvlar asosida yoritilgan. Ayniqsa, virtual reallik, media tasvirlar va algoritmik tizimlar orqali shakllanayotgan yangi epistemologik paradigma ochib beriladi. Yevropa va Osiyo jamiyatlari misolida tafakkur transformatsiyasining*

madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlili natijada zamonaviy tafakkurning vizual, fragmentar, algoritmik va intuitiv-sinergetik shakllarga o'tayotgani asoslanadi. Tadqiqot xulosalari zamonaviy falsafada virtual voqelik va tafakkur transformatsiyasini o'rganishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: *giperreallik, algoritmik tafakkur, sinergetik yondashuv, fenomenologiya, gnoseolo-\giya, media muhit, raqamli madaniyat, identitet, e'tibor iqtisodiyoti, epistemologiya.*

Усманов Мухриддин Абдимуратович (докторант Национального университета Узбекистана; e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com)

ТРАНСФОРМАЦИЯ СТИЛЯ МЫШЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕОСМЫСЛЕНИЯ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье анализируются философские основания процесса восприятия реаль-ности в условиях виртуальных образов. В исследовании на основе феноменологического, гносеологического и синергетического подходов раскрывается влияние современной цифровой среды на человеческое сознание, процессы познания и стиль мышления. Особое внимание уделяется формированию новой эпистемологической парадигмы под воздействием виртуальной реальности, медийных образов и алгоритмических систем. На примере европейских и азиатских обществ проводится сравнительный анализ культурных особенностей трансформации мышления, в результате которого обосновывается переход современного мышления к визуальным, фрагментарным, алгоритмическим и интуитивно-синергетическим формам. Выводы исследования подтверждают актуальность изучения виртуальной реальности и трансформации мышления в современной философии.*

Ключевые слова: *гиперреальность, алгоритмическое мышление, синергетический подход, феноменология, гносеология, медийная среда, цифровая культура, идентичность, экономика внимания, эпистемология.*

Usmanov Muxriddin Abdimuratovich (Doctoral student at the National University of Uzbekistan; e-mail: muhridinusmanov0@gmail.com)

TRANSFORMATION OF COGNITIVE STYLE IN THE PROCESS OF REINTERPRETING REALITY

Annotation. *The article analyzes the philosophical foundations of the process of perceiving reality in the context of virtual images. The study examines the impact of the modern digital environment on human consciousness, cognitive processes, and styles of thinking through phenomenological, epistemological, and synergetic approaches. Particular attention is given to the emergence of a new epistemological paradigm shaped by virtual reality, media representations, and algorithmic systems. A comparative analysis of European and Asian societies reveals the cultural specificities of the transformation of thinking, substantiating the shift of contemporary cognition toward visual, fragmented, algorithmic, and intuitive-synergetic forms. The findings confirm the relevance of studying virtual reality and the transformation of thinking within contemporary philosophy.*

Keywords: *hyperreality, algorithmic thinking, synergetic approach, phenomenology, epistemology, media environment, digital culture, identity, attention economy.*

Kirish. Bugungi raqamlashgan jamiyat sharoitida barcha masalalar qatorida insonning voqelikni idrok etishi jarayoni hamda unga ta'sir qilayotgan mexanizmlar ham transformatsiyaga uchramoqda. Virtual obrazlar, media tasvirlar va simulyakrlar inson ongida "haqiqiylik" tushunchasining qayta qurilishiga olib kelmoqda. Bu jarayon ayniqsa global informatsion jamiyatda yaqqol namoyon bo'lib, u barcha xalqlar turmush tarzida muayyan farqli jihatlar bilan ifodalanmoqda. Masalan, G'arb jamiyatida (AQSH va Yevropa) ijtimoiy tarmoqlar orqali yaratilgan "ideal hayot" obrazlari shaxsning o'zini idrok etishiga ta'sir ko'rsatadi. Instagram va media madaniyati orqali shakllangan bu virtual identifikatsiya real ijtimoiy tajribani siqib chiqarmoqda [1;371-b.]. Osiyo mamlakatlarida, xususan Janubiy Koreya va Yaponiyada esa virtual avatarlar, metaverse va sun'iy identitetlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan.

H.Vendi ta'kidlaganidek, Fenomenologik nuqtai nazardan, bu holat idrokning "to'g'ridan to'g'ri" shaklidan uning mediatsiyalashgan shakliga o'tishini anglatadi [2;390-b.]. Natijada tafakkur uslubi ham o'zgarib, yangi vizual, algoritmik va sinergetik xususiyat kasb etadi. "Men fikrlayabman, demak men yashayabman" – Dekartcha yondashuvdan kelib chiqib aytamizki bilish jarayoni hamda tafakkur tarzi insonning mohiyatini ta'minlaydi. Bu jarayonga esa voqelikning qayta idrok etilishidagi transformatsiyalar keng (ijobiy va salbiy) ta'sir o'tkazmoqda. Shu boisdan ham ushbu masala dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Voqelikning qayta idrok etilishi va tafakkur uslubining transformatsiyasi masalasi zamonaviy falsafiy va interditsiplinar tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan muammolardan biridir. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarni shartli ravishda bir necha asosiy guruhlarga

ajratish mumkin: klassik gnoseologik yondashuvlar, fenomenologik tadqiqotlar, media va raqamli muhit falsafasi, hamda sinergetik va postnoklassik tafakkur konsepsiyalari. Klassik falsafada bilish jarayoni subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabat sifatida talqin qilingan. Dekart va Yum qarashlariga ko‘ra, inson ongining asosiy vazifasi voqelikni aks ettirishdan iborat bo‘lib, bilish jarayoni, asosan, ratsional va empirik mexanizmlar orqali tushuntirilgan [3;221-b.]. Bu yondashuvda voqelik barqaror va mustaqil mavjud bo‘lgan obyektiv reallik sifatida qaraladi.

Fenomenologik yondashuv esa bilish jarayonini subyektiv tajriba orqali izohlaydi. E.Gusserl ongning intentional tuzilishini asoslab, idrokning to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki ong faoliyati orqali konstitutsiyalanishini ko‘rsatadi [2;390-b.]. Bu yondashuv zamonaviy virtual muhitda voqelikning mediatsiyalashgan shaklda idrok etilishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Media va raqamli muhitga oid tadqiqotlar esa ushbu muammoni yangi bosqichga olib chiqdi. Vendi zamonaviy yangi media sharoitida idrokning odatiy shakllar orqali shakllanishini ta’kidlab, inson ongining raqamli muhitga moslashuvchanligini ko‘rsatadi [1;371-b]. Y.Kitton esa “e’tibor ekologiyasi” konsepsiyasi orqali zamonaviy jamiyatda idrok va tafakkur algoritmik boshqaruv ta’sirida ekanligini asoslaydi [4;313-b.]. Bu yondashuvlar bilish jarayoniga texnologik vositachilar faol aralashayotganini ko‘rsatadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar voqelikni idrok etish va tafakkur transformatsiyasi masalasini turli nuqtayi nazardan yoritgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati ushbu jarayonni alohida aspektlarda o‘rganadi. Mazkur tadqiqot esa fenomenologik, media-falsafiy va sinergetik yondashuvlarni integratsiya qilgan holda, voqelikning qayta idrok etilishi va tafakkur uslubi transformatsiyasini kompleks tarzda tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jarayoni fenomenologik tahlil, gnoseologik yondashuv, komparativ va sinergetik metod, media-falsafiy yondashuv kabi metodologik asoslar orqali amalga oshirildi. Shuningdek, ilmiy tafakkur uslubi va algoritmik boshqaruv nazariyalariga ham tayanildi.

Taxlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa jamiyatida virtual obrazlar shaxsning ijtimoiy identitetini shakllantirishda asosiy vositaga aylanib ulgurgan. Masalan, Germaniya va Fransiyada yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda yaratilgan “ideal men” obrazi real hayotdagi o‘zini baholashga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat Sontag tomonidan ta’kidlangan tasvirning voqelikni almashtirishi g‘oyasini tasdiqlaydi [5;214-b.]. Osiyo xalqlarida esa bu jarayon nisbatan chuqurroq xarakterga ega. Masalan, Yaponiyada “virtual idol”lar (masalan, Hatsune Miku fenomeni) real san’atkorlarga raqobatchi sifatida maydonga chiqdi. Bu esa simulyakrning realdan ustunlashuvini ko‘rsatadi. Buning natijasida tafakkur identitetni “yaratish” jarayoniga aylanadi. Qolaversa, individual tajribadan ko‘ra ko‘proq media ta’sirida shakllanib konstruktiv xarakter kasb etadi.

Yevropada turizm sanoatida “sun’iy tarixiy muhitlar” (masalan, tematik parklar, rekonstruksiya qilingan shaharchalar) keng tarqalgan. Bu joylarda tarixiy voqelik emas, balki uning simulatsiyasi taqdim etiladi. Osiyoda esa Xitoydagi “nusxa shaharlar” (masalan, Parij yoki Venetsiya arxitekturasining to‘liq ko‘chirilgan variantlari) simulakrlarning ekstremal shaklidir. Bu yerda nusxa aslidan mustaqil mavjud bo‘ladi. Bu jarayon esa quyidagilarni yuzaga keltiradi:

– voqelik va tasvir o‘rtasidagi farq yo‘qoladi;

– “giperreallik” ustunlik qiladi;

– bilish jarayoni empirik asosdan uzoqlashadi.

Yevropa Ittifoqida algoritmik boshqaruv va sun’iy intellekt ijtimoiy qarorlar qabul qilishda keng qo‘llanmoqda. Masalan, kredit tizimlari va ishga qabul qilish jarayonlari algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa inson tafakkurining qaror qabul qilishdagi rolini kamayishiga olib keladi. Osiyoda, ayniqsa Xitoyda, “ijtimoiy reyting tizimi” orqali inson xulq-atvori algoritmik nazorat ostiga olinadi. Bu esa tafakkurning shakllanishiga tashqi tizimlar ta’sirining ortishiga olib keladi. Natijada e’tibor boshqariladi, tafakkur tezkor bo‘lsa-da, juda yuzaki xarakterga ega bo‘lib qolish xavfini keltirib chiqaradi.

Bugungi sharoitda tafakkur noaniqlik va murakkabliklarga moslashmoqda. Bu, ayniqsa, Xitoy va Hind madaniyatida ko‘proq namoyon bo‘ladi, chunki bu madaniyatlar allaqachon holistik tafakkurga asoslangan. Yevropada esa klassik ratsionalizm (Dekart modeli) asta-sekin sinergetik yondashuv bilan almashmoqda [6;262-b.]. Sinergetik tafakkur ko‘p variantlilikka moyilligi, noaniqlikni bilim manbai sifatida ko‘rishi bilan tizimli fikrlashning yuksalishiga xizmat qiladi.

Klassik falsafada (Dekart, Yum) bilish jarayoni subyektiv ong va obyektiv voqelik o‘rtasidagi munosabat sifatida talqin qilinganligini ko‘rishimiz mumkin [3;221-b.]. Bugungi kunda inson dunyoni to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki media vositalari va algoritmlar (sun’iy intellekt, tavsiya tizimlari) orqali qabul qilmoqda. Shuning uchun bilish jarayoni “inson – media va algoritmlar – voqelik” ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Masalan, biz ko‘p hollarda voqealarni o‘zimiz ko‘rib emas, balki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rilgan videolar yoki yangi-

liklar orqali bilamiz. Bu shuni anglatadiki, bugungi idrok allaqachon qayta ishlangan, tanlab berilgan axborotga asoslanmoqda. Natijada haqiqat va tasvir o‘rtasidagi farq kamayib, bilish jarayoni qisman algoritmlar tomonidan boshqarilishiga olib kelmoqda. Demak, zamonaviy sharoitda bilish jarayoni oddiy ikki tomonlama munosabat emas, balki uch tomonlama –“inson – texnologiya – voqelik” o‘rtasidagi murakkab tizimga aylandi.

Xaydeggerning “borliqni unutish” konsepsiyasi bugungi virtual muhitda dolzarb bo‘lib, unga ko‘ra, inson voqelikdan uzoqlashib, simulyakrlar dunyosida yashay boshladi, deb izohlaydi [7;250-b.]. Yevropa va Osiyoda insonlar tafakkur uslubidagi transformatsiyalarning qiyosi asosida Yevropada transformatsiya individualizm asosida kechayotganligini, Osiyoda esa jamoaviy va texnologik integratsiya kuchliroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu tafakkur uslubining madaniy determinantlarga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Virtual obrazlar va simulyakrlar zamonaviy inson tafakkurining strukturaviy asoslarini o‘zgartirmoqda. Yevropa va Osiyo jamiyatlari misolida ko‘rish mumkinki, bu transformatsiya global bo‘lsa-da, uning namoyon bo‘lish shakllari madaniy kontekstga bog‘liq. Bugungi kunda voqelik mediatsiyalashgan shaklda idrok etilmoqda, tafakkur vizual, algoritmik va sinergetik shaklga o‘tmoqda, simulakrlar sekin-asta real voqelik o‘rnini egallamoqda, buning oqibatida yangi epistemologik paradigma shakllanmoqda.

Shu bois falsafiy tadqiqotlarda virtual voqelik va tafakkur transformatsiyasini chuqur o‘rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida yuzaga chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Wendy H. Updating to Remain the Same: Habitual New Media. Cambridge, MIT Press, 2016. 371 p.
(2). Гуссерль Э. Логические исследования. Том II, М., “Гнозис”, 2001, 390 с.
(3). Давид Ю. Трактат о человеческой природе. М., “Наука”, 1996, 221 с.
(4). Yves C. The Ecology of Attention. Cambridge, “Polity Press”, 2017, 313 p.
(5). Susan S. On Photography. New York, Straus and Giroux, 1977, 214 p.
(6). Декарт Р. Размышления о первой философии. М., “Мысль”, 1994, 262 с.
(7). Хайдеггер М. Бытие и время. М., Ad Marginem, 1997, 250 с.

Abdiyev G‘ayrat Ergashevich (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis, tarmoq kengashi kotib, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARI VA YOSHLAR SIYOSATIDAGI INNOVATSION TENDENSIYALAR

Annotatsiya. *Maqolada kommunikatsiya falsafasi doirasida ijtimoiy muloqotning insonparvarlik tamoyillarini tahlil qilib, yoshlar siyosatida innovatsion kommunikatsion tendensiyalarni konseptual asoslashni maqsad qiladi. Metodologiya sifatida falsafiy-germenevtik tahlil, normativ yondashuv va qiyosiy konseptual tahlil qo‘llanadi. Natijalar muloqot etikasi, ishonch infratuzilmasi va raqamli muhitda inklyuzivlik mezonlarini tizimlashtiradi. Ilmiy hissa innovatsiyani texnik yangilik emas, insonparvarlikka yo‘naltirilgan ijtimoiy amaliyot sifatida asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikatsiya falsafasi, ijtimoiy muloqot, insonparvarlik tamoyillari, yoshlar siyosati, innovatsiya, raqamli kommunikatsiya, ishonch.*

ИННОВАЦИОННЫЕ КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МОЛОДЁЖНОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация. *В статье в рамках философии коммуникации анализируются гуманистические принципы социального общения и ставится цель концептуально обосновать инновационные коммуникационные тенденции в молодежной политике. В качестве методологии используются философско-герменевтический анализ, нормативный подход и сравнительный концептуальный анализ. Результаты систематизируют этику общения, инфраструктуру доверия и критерии инклюзивности в цифровой среде. Научный вклад заключается в обосновании инновации не как технической новизны, а как социально ориентированной практики, направленной на гуманистические ценности.*

Ключевые слова: *философия коммуникации, социальное общение, гуманистические принципы, молодежная политика, инновация, цифровая коммуникация, доверие.*

INNOVATIVE COMMUNICATION TRENDS IN YOUTH POLICY

Annotation. *The article analyzes the humanistic principles of social interaction within the framework of the philosophy of communication and aims to provide a conceptual justification of innovative*